

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limda integrativ ta'lim va uning turlari.....	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasi	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi” (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limda o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rmi	377
I.Kirgizov	
“Ey sabo” – komil insonga aksiologik yondashuv.....	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati.....	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari.....	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbonova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlar va uning ilmiy tahlili.....	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rmi	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rmi (Doira cholg'usi misolida).....	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limida finale-2003 dasturining qo'llanishi.....	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



UO'K: 784.+781.01

MILLIY MUSIQANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA XALQ QO'SHIQLARINI QAYTA ISHLASHNING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI**ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ****FEATURES OF USING FOLK SONGS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC****Karimov Abdulxay Tursinovich**

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

ORCID ID 0000-0002-1330-1676

Annotatsiya

Maqolada milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek kompozitorlari tomonidan ularni xor uchun moslashtirib, zamonaviy sayqal berishlari sababli ularning jozibalar haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются особенности переработки народных песен в становлении и развитии национальной музыки, их прелесть, обусловленная тем, что узбекские композиторы адаптировали их для хора и придали им современную окраску.

Abstract

The article examines the features of the processing of folk songs in the formation and development of national music, their charm, due to the fact that Uzbek composers adapted them for the choir and gave them a modern twist.

Kalit so'zlar: acapella, lad, monodiya, garmoniya, faktura, polifoniya, kanon, antifon, imitatsiya, melizm, mordent, forshlag, dirijyor, xormeyster.

Ключевые слова: акапелла, отрок, монодия, гармония, фактура, полифония, канон, антифон, имитация, мелизма, мордент, форшлаг, дирижер, хормейстер.

Key words: acapella, youth, monody, harmony, texture, polyphony, canon, antiphon, imitation, melisma, mordent, grace note, conductor, choirmaster.

KIRISH

Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq kuylarini qayta ishlash professional musiqa - bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti sohasi, muayyan janr. Ko'p ovoqli musiqa zaminida aranjirovka, garmoniyalashga, qisman yaqin, lekin usluban birmuncha murakkab. Kompozitorlik maktablari shakllanishida xalq kuylarini qayta ishlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, dastlabki bosqich vazifasini bajaradi, zero milliy musiqa uslublarini o'zlashtirishda ijodiy vazifasini o'taydi. Kompozitorlardan U.Hojibekov, Z.Paliashvili, M.Glinka, E.Grig, N.Lisenko, B.Bartok, J.Gershvin, S.Prokofev, L.Yanachek va boshqalar. O'tmish o'zbek musiqa ijrochiligi va ijodiyoti o'zgaruvchanlik, og'zakilik kabi omillarga asoslangan bo'lib, unda xalq hamda mumtoz cholg'u kuy yoki ashula yo'llarining variantlarini yaratish keng o'rin olgan. Mazkur an'anani bastakorlik ijodiyotining tarkibiy yo'nalishiga aylantirib, T.Jalilov, Yu.Rajabiy va boshqa ijodkorlar xalq kuylarini qayta ishlashning monodiya zaminidagi yetuk namunalari yaratishgan.

Kompozitorlar ijodidan xalq kuylarini qayta ishlash katta o'rin olib, O'zbekistonda musiqali drama, opera, balet, simfonik musiqa, kantata, oratoriya, kamer musiqa janrlari o'zlashtirilishida muhim omil bo'ldi. Bu sohadagi dastlabki tajriba XIX asr oxiri – XX asr boshlarida N.Klenovskiy, F.Leysek, N.Mironov, K.Abdullaev, 3.Maqsudov va boshqalar yaratgan asar larda kompozitorlar o'zbek musiqa merosi xususiyatlarini singdirisha olmadi. 1920 - 30 yillarda V.Uspenskiy boshqa kompozitorlar kabi xalq qo'shiqlaridan «Zarkokil», «Chamanda gul» kabilar, «Farhod va Shirin» musiqali dramasida murakkab ashula hamda maqom yo'llari, masalan «Naylaram», «Chorgoh»

PEDAGOGIKA

kabilarni tinglovchilarga mo'ljallab qayta ishlashda ko'p ovozli musiqa vositalari ayniqsa, garmoniya imkoniyatlaridan cheklangan holda foydalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Musiqa - ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch beraoladigan jon ozug'idir. Qudratli kuchga ega bo'lgan musiqa o'z jozibasi bilan inson qalbini qamrab oladi. Musiqani qalbi go'zallikka ishtiyoqmand kishilargina sevadi, anglaydi. Musiqa tinglash va uni idrok etish bolalikdan tarbiyalanadi hamda singdirib boriladi. Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamollik haqida gapirib bo'lmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. Musiqa badiiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega san'at turidir.

Xalq musiqasi minglab yillar davomida shakllanib sayqal topib, badiiylashib yuksak pog'onalariga ko'tarilgan va har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan. O'zbek xalq musiqasi xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, diniy e'tiqodining ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirib, orzu-umidlari, mehnatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni, sevgiga vafodorlikni tarannum etadi. Xalq bayramlari, sayillari, katta yig'inlari, to'y-tomoshalarini musiqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularda yangragan har bir kuy-qo'shiq, raqs ishtirokchilarining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Marosim, bayram va sayillarda ijro etilgan, xalq tomonidan yaratilgan qo'shiqlar tabiat manzaralariga, ijtimoiy voqelikka bo'lgan munosabatlari natijasida vujudga kelgan. O'zbek xalq musiqasi tabiat, jamiyat hodisalari va inson hulq-atvoridagi go'zallikni idrok etishga, ulardan zavqlanishga xizmat qiladi. Barcha xalq qo'shiqlari muayyan sharoitda yuzaga kelib hayotni o'zida aks ettiradi. Xalq musiqasi kishilar ongiga san'at asarlarining eng ta'sirchan vositasi sifatida tevarak-atrofdan ro'y berayotgan voqea va hodisalarni singdirishga yordam beradi. Xalq qo'shiqlari va musiqasi ijodkorlarni har doim o'ziga jalb qilib kelgan. Har bir xalq folklorini qayta ishlash bastakordan asarlarni puxtalik bilan o'rganib chiqishni talab etadi. Ayniqsa, bu jarayon tabiatan bir ovozli bo'lgan xalq qo'shiqlari bilan ishlashda o'ta noziklik ila namoyon bo'ladi. Ko'povozli milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarining o'rni beqiyosdir. O'zbek musiqa san'atida kompozitorlik yo'nalishi bilan o'chmas iz qoldirgan, atoqli o'zbek kompozitori Mutavakkil Burhonov o'zbek va qardosh xalqlar qo'shiqlarini qayta sayqal berib, jamoaviy ijro uchun moslashtirgan birinchi kompozitorlardan. Uning badiiy yetuk darajada qayta ishlangan o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Yorlarim" yoki "Tanovar", "Go'zal qizga" yoki "Ganji Qorabog'", qoraqolpoq xalq qo'shig'i "Bibigul", uyg'ur xalq qo'shig'i "Sayra", tojik xalq qo'shiqlari "Zarra gul" va "Sari ko'hi baland" kabi jo'rsiz asarlari hali-hamon kompozitorlar va xor san'ati ijodkorlariga namuna sifatida xizmat qilib ijro etib kelinmoqda. Ushbu asarlar o'zbek xor musiqasining namunali, o'ziga xos yo'lbo'shchisiga aylangan. Uning iste'dodli izdoshlari Sobir Boboev, Botir Umidjonov va bir qator xormeysterlar Sh.Yormatov, J.Shukurov, Ye.Nechaev, N.Sharafievalar xalq qo'shiqlarini xor uchun moslashtirish o'zbek musiqasi xor ijrochilik janrini boyitdilar. Qayta ishlash - ijodiyotning qiziqarli va mustaqil sohasi bo'lib, har bir xalq qo'shiq madaniyatining betakror, o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish, uning musiqiy tafakkurini ochib berish imkoniyatiga ega. Qayta ishlashning asosiy vazifasi turli ifodaviy vositalar orqali qo'shiq mazmunining o'ziga xos mazmunilligi, uning milliy "rang-bo'yoqlari"ni ochib berishdan iboratdir. S.Boboevning xor ijrochiligi uchun qayta ishlagan "Chaman ichra", "Yali-yali", "Galdir", "Tanovor", "Endi sendek" xalq qo'shiqlari hozirgi kunda ham o'quv va professional xorlar dasturida yangrab kelmoqda. Bu borada, ayniqsa, ustoz dirijyor, ijodkor xormeyster, o'zbek xor san'ati bilimdoni, kompozitor Botir Umidjonovning yuzlab xalq qo'shiqlarini qayta ishlab, yangi, yaxlit asarlarni yaratib xor san'atini xalqimizga manzur etishda xizmatlari juda kattadir. U "Ililayor", "Qorasoch", "Chamandagul", "Qilpillama", "Lapar", "Galbari" o'zbek xalq qo'shiqlari, hamda turli O'rta Osiyo xalq qo'shiqlaridan tojikcha "Diliman", qozoqcha "Yapuray", uyg'urcha "O'ynamdu yaxshi", "Dolan mekti", "Almyhan", "Qomuzchu", "Chaloyna" kabi nafaqat miniatyuralarini yaratdi, shuningdek, mumtoz an'anaviy kasbiy musiqa bo'lmish maqom namunalarini ko'povozli xorga moslashtirishda ham B.Umidjonovning hissasi katta. Uning tomonidan qayta ishlangan Xurshid g'azali bilan "Segoh", Furqat g'azali bilan "Chorgoh", Hofiz g'azali bilan "Saraxbori Navo"lar xor ijrosida yangicha bo'yoq va jarang bilan yangradi. Ustoz dirijyor jo'rsiz xor uchun pomir xalq qo'shiqlari asosida "Dilbarume", tatar xalq qo'shiqlari asosida "Yashlar uloni" va "Baxt nuri" syuitalarini ham yaratdi. B.Umidjonov xormeysterlik faoliyati jarayonida xor ijrochiligining akademik yo'lini - milliy xonandalik an'analari bilan muvofiqlashtirdi. O'zbek milliy xor ijrochiligiga o'ziga xos uslub va bezak topishda O'zbekiston xalq artisti, xor

dirijyori, bastakor Botir Umidjonovning mehnatlari va kasbiy mahorati beqiyos bo'lgan. Bu jamoa o'zining milliy ijro uslubi bo'yicha boshqa xor jamoalaridan ajralib turadi. Xor uchun moslashtirilgan ustozlarning barcha asarlarini asosan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan" xor jamoasi tomonidan kuylab, O'zbekiston radio va televideniya sinfi oltin fondi saqlanib kelinmoqda. Turli xor jamoalari bilan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatgan ustoz professor Ye.Nechaevning o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Zar do'ppi", "Namanganning olmasi", "Ho laylo", "Qiyiq", uyg'ur xalq qo'shiqlari "Nazugum", "Dutaraymning tarifi", "Chayraylig'im", "Serayq sebde", turkman xalq qo'shig'i "Bibijan", tojik xalq qo'shiqlari "Chashmoni siyoh tu", "Mavji jonon mezanad", qozoq xalq qo'shiqlaridan "Aytim salemqalam qas", qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan "Kizlar seyili", bugungi kunda ham hali faoliyat ko'rsatib kelayotgan professor N.Sharafievaning "O'zbekiston taronalari", "Ey, nozanin", "Xorazm navolari", "Sayri bog", "Hazil", "Ey mexribonim", "Tasadduq", "Mustahzod", "Navro'z salomi", "Deydi-yo", tatar xalq qo'shiqlaridan "Tan atganda", qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan "Sonday kuldim" kabi bir qator asarlarini ham keltirish mumkin. Ustozlar qo'shiq janri, kuy mazmuni, mazmuni, ohangining tarkibini xususiyatlariga qarab, xor yozuvining turli-tuman uslublarini qo'llaganlar. Bir ovozli qo'shiqlarni yevropacha turdagi ko'povozli keng ko'lamlil tarannumi tarkibiga kirishiga va uni ovoz osti polifonik hamda fakturali jihatini shakllantirishga muvaffaq bo'ldilar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Xalq qo'shiqlarini, ya'ni monodik qo'shiqlarni xor ijrochiligi uchun qayta ishlash jarayonidagi ko'povozlilikning dinamik sur'atining o'sish tamoyillarini kuzatar ekanmiz, xor ko'povozlilik uslubida nisbatan oddiy shakl bo'lgan kvarta-kvinta intervali, paralell ovozlar harakatini ko'rishimiz mumkin. Bu harakatlar, ayniqsa, xorning bir qismi cholg'u jo'rligini, garmonik fonni o'z zimmasiga olgan hollarda qo'llaniladi. Ijrochilikning bunday uslubi cholg'u ijrochiligiga mansub "dutor" ikki ovozligiga xosdir. Xalq qo'shiqlarini qayta ishlashda antifon, ya'ni dialog, kanonli, imitatsiya yo'llardan juda ko'p foydalaniladi, chunki ular musiqaning milliy tabiatini, uning turli ko'rinishlarini yorqin ko'rsatib berishga, o'zbek monodiyasi shaklini unga xos sadolar doirasida ochib berishga ko'povozlilik bo'yoqlari bilan boyitishga imkoniyat yaratadi. Ko'povozlilikning boshqa uslublarining shakllanishlari qatorida, folklorning qayta ishlashda polifonik xat usullaridan foydalanish, professional kompozitorlarga hamda xalq qo'shiqlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi xormeysterlar uchun ham oddiy holga aylandi. Qo'shiqlarni qayta ishlashdagi manbalaridan biri usul hisoblanadi. Jumladan, usulning o'zbek musiqasida badiiy-ifodaviy xususiyatlari beqiyosdir. Turli xil ritmik usullarga boy doiraning zarblarini ham ko'povozlilikka moslashtirishda kompozitorlarimizning mohirona, rang-barang effektlardan foydalanishlarini ko'ramiz. Xalq qo'shiqlarini ko'povozlilikka moslashtirishda yana ko'plab koloristik effektlar - yumiq ovoz, unli tovushlarni vokallashtirish, maxsus bo'g'in birikmalaridan "bum-bak", "ra-na-na", "rak-tak-tak", "yor-yor", "yoroney", qarsak chalish, barmoqlarni qirsillatish, turli hil xayqirishlardan foydalanish qo'shiqlarni yanada musiqiy rivojini boyitadi va kuchaytiradi. Melizmlar, forshlag, mordentlar kuylarni yanada bezab ularni yanada jozibaliroq, nafisroq, go'zalroq bo'lishini ta'minlaydi. Bu ijodkorlar o'zbek xalq qo'shiqlarining melodiyasi, asosiy musiqiy yo'nalishini saqlab qolgan holda qo'shiq xajmini e'tiborga olib xor ijrosi uchun moslashtirganlar. Qo'shiqlardagi matnlar ma'nosiga qarab asosiy kuy yo'nalishi goh erkaklar guruhiga, goh ayollar guruhiga ketma-ket berilgan. Shuni ta'kidlash joizki, har bir xalqning musiqa folklorida betakror, faqat shu xalqqagina xos xususiyatlar ham namoyon bo'ladi.

Qayta ishlashning qat'iy, majburiy sharti milliy melodiyasni o'zgartirilmagan holda, ya'ni mazkur kuyning o'ziga xos bo'lgan kuy va ritm tafsilotlari bilan saqlab qolinishidir. Ma'lumki, estetik hissiyotni tarbiyalash insonning yoshlik davrlaridan boshlanadi. Milliy g'urur, milliy tuyg'u, milliy qadriyatlar, an'analarga sadoqat, ona zaminga hurmat - bularning barchasi insonga uning yoshlik davrlaridan boshlab singdirilgan. Bolalarni xalq qo'shiqlari asosida tarbiyalash ham eng muhim vazifalardandir. Shu o'rinda O'zbekiston xalq artisti dirijyor, kompozitor Sh.Yormatovning juda ko'plab bolalar xalq qo'shiqlarini bolalar xorlari uchun moslashtirgan asarlarini takidlab o'tish joizdir. "Boychechak", "Chittigul", "Lolacha", "Bu gulshan soz", "Jamalagi tillo" kabi bir qator bolalar xalq qo'shiqlarini bastakor bir necha yillik tajribalariga asoslangan xolda bolalar xori uchun moslashtirdi. Jamoa ijrosida bu qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, tasirchanligi yanada kuchaydi. Demak, xalq musiqasi orqali inson ruhiyatiga estetik ta'sir ko'rsatishkida hayotning haqiqiy go'zallikdan zavqlanish qobiliyatini, odamlar baxt-saodati yo'lida ijodiy mehnat qilishni, ma'naviy barkamol inson bo'lishga intilishlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Kuy-qo'shiq insonning inson bo'lib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy-ma'naviy omil hisoblanadi. Xalq qo'shiqlarining har bir turi insonni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda o'ziga xos vazifani bajaradi.

XULOSA

Shuni aytib o'tish joizki, xalq qo'shiqlarini xoh bolalar, xoh katta yoshdagi xor jamoalarining birgalikda kuylashi barcha insonlarni yanada ommaviylashishiga, bir-birlariga bo'lgan mehrlarini uyg'otib, yanada yaqinroq anglash, his-tuyg'ularini rivojlanishiga undaydi. Xalq qo'shiqlarini ko'povozlilik ijro mazmunida ham ezgulik g'oyalariga hurmat-ehtiram, mehr-oqibat, o'z tarixi, madaniyati bilan mag'rurlanish, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlarning mano-mohiyati ifodalangan. Xor san'ati ham insonlarni ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga, ularni birlashtirishga va insonlarda estetik zavq uyg'ota oladigan san'at turlaridan biridir. Bu san'at sog'lom yosh avlodni, yoshlarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyo qarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Y. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent. 1959 yil.
2. K.Imomov, T.Mirzaev, V.Sarimsokov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. O'qituvchi. 1990 yil.
4. E.Ochilov. Shoda-shoda marvarid. O'zbek xalq qo'shiqlari. Toshkent. Sharq 2006 yil.
5. M.Juraev. O'zbek folklorshunosligi masalalari. Toshkent. Fan 2010 yil.
6. O.Safarov. To'ylar muborak, yor-yor. Toshkent. Ma'naviyat. 2000 yil.
7. R.Nosirov. Xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi. Toshkent. Fan. 2006 yil.
8. N.Ortiqmatov. Qo'shiqlarda takrorlarning tiplari. O'TA. 2008 yil.